

O‘ZBEKISTONDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY O‘SISH ISTIQBOLLARI



Hisobotning to‘liq matni: [rus tilida](#) | [ingliz tilida](#)

Jahon banki [xizmatlar sohasining O‘zbekistondagi holati bo‘yicha yangi hisobotini](#) taqdim etdi. Hisobotda sohani rivojlantirish yo‘lidagi qiyinchilik va imkoniyatlar tahlil qilinib, uni liberallashtirish va modernizatsiya qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish tegishli sohalarga investitsiyalarni jalb etishga yo‘naltirilgan islohotlar taklif etilgan.

Xizmatlar sohasi O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy ustunlaridan biridir. 2023-yilda uning YaIMdagi ulushi nominal qiymatlarda 43,9% ni tashkil etib, sanoat (23,5%), qishloq xo‘jaligi (20,6%) va qurilish (7,1%) hissasidan yuqoriroq bo‘lgan.

O‘zbekistonda barcha ish o‘rinlarining yarmidan ko‘pini ta‘minlab kelayotgan xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan transformatsiya qilishda muhim rol o‘ynadi. 1991-yildan 2022-yilgacha ushbu sektordagi bandlik ulushi 37 foizdan 50 foizgacha oshdi, bu esa qishloq xo‘jaligida bandlik darajasi pasayishini deyarli to‘liq qoplash imkonini berdi.

2017-yildan boshlab O‘zbekistonda bozor islohotlari barqaror iqtisodiy o‘shishga zamin yaratib, o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 5,5 foiz atrofida bo‘ldi. Biroq, hozirgi vaqtda iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasi sekinlashdi va xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushi past darajada oshdi — 2010-yildagi 41 foizdan 2022-yilda 44 foizgacha, ushbu sektorda bandlik ulushi esa 2010-yildan beri qariyb 50 foiz darajasida barqarorlashdi.

Barqaror o‘rta ta’minlash uchun xususiy sektorni kengaytirish va xizmatlar sohasini, ayniqsa global innovatsion xizmatlar sub-sektorini yanada rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish zarur. Bunday xizmatlarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), professional xizmatlar (konsalting, yuridik, arxitektura, muhandislik va boshqalar), shuningdek moliyaviy xizmatlar kiradi.

Xizmatlar sohasini rivojlanish yolidagi qiyinchiliklar

O‘zbekistonda xizmatlar sohasi rivojlanish yo‘lida turli qiyinchiliklarga uchramoqda. Xususan, sektordagi bandlikning qariyb 60 foizi mehnat unumdorligi cheklangan chakana savdo, mehmonxona biznesi va transport kabi past malakali xizmatlar sub-sektorida to‘plangan.

Shu bilan birga, global innovatsion xizmatlar qator yo‘nalishlardagi qiyinchiliklar tufayli yetarlicha rivojlanmayapti, jumladan **tashqi bozorlar bilan yetarlicha bog‘liqlikning yo‘qligi, mahalliy korxonalar va kompaniyalar raqobatbardoshligining past darajada ekanligi, shuningdek ishchilarda kerakli kompetensiyalarning (bilim va ko‘nikmalar) yo‘qligi.**

Tashqi bozorlar bilan bog‘liqlik masalasida mamlakat jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirishi kerak. **Jismoniy bog‘liqlik** sohasida 2023-yilda O‘zbekiston [Jahon bankining Logistika samaradorligi indeksida](#) dunyoning 139 iqtisodiyoti orasida 88-o‘rinni egallagan.

Raqamli bog‘liqlik sohasida aholining 4G/LTE tarmog‘i kabi yuqori tezlikdagi mobil internetdan foydalanishi cheklanganligicha qolmoqda – uning qamrovi 2023-yilda 92 foizni tashkil etdi, bu ushbu aloqa turi bilan umumiy qamrovdan kamroq. Shu bilan birga, aholining atigi 40 foizi raqamli to‘lovlardan foydalanadi. Ushbu cheklovlar AKT xizmatlari va raqamli biznes rivojiga to‘sqinlik qilmoqda.

Raqobatbardoshlikni kuchaytirish sohasida [Jahon banki va JSTning Xizmatlar savdosidagi cheklovlar indeksi](#) O‘zbekiston 31 ta sub-sektorning 11 tasida transchegaraviy xizmatlar ko‘rsatish uchun to‘liq yopiq ekanligini ko‘rsatmoqda. Ular orasida arxitektura, muhandislik va buxgalteriya xizmatlari kabi bir nechta professional xizmatlar mavjud.

Shu bilan birga, telekommunikatsiya tarmog‘ida, shuningdek, havo va temir yo‘l transporti xizmatlarini ko‘rsatishda davlat korxonalarining ustunligi bozor raqobati uchun sezilarli to‘siqlarni keltirib chiqaradi va ushbu sohalarga xususiy investitsiyalarni jalb qilishni qiyinlashtiradi.

Zarur kompetensiyalarni egallash bo‘yicha O‘zbekiston xizmatlar sohasining tegishli sub-sektorlarida ishlash uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikma va bilimlarni rivojlantirishga ko‘proq sarmoya kiritishi kerak. Xususan, mamlakatda oliy ta‘lim olish imkoniyati cheklanganligicha qolmoqda. Oliy ta‘lim muassasalariga qabul darajasi 2022-yilda 31,5 foizni tashkil etib, bu Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichning – 80 foizga yetadi – yarmidan kamrog‘ini tashkil etadi. Bundan tashqari, O‘zbekistonda bazaviy AKT ko‘nikmalari yaxshi rivojlanmagan: aholining atigi 15% ga yaqini bunday ko‘nikmalarga ega.

Xizmatlar sohasida tavsiya etilgan islohotlar

Jahon banki xususiy korxonalarining o‘sishi va xizmatlar sohasining rivojlanishiga yo‘l bermayotgan ushbu to‘siqlarni bartaraf etish uchun regulyatorlik islohotlarini o‘tkazishni tavsiya qiladi. Asosiy chora-tadbirlar quyidagilarga qaratilishi mumkin:

- Jismoniy infratuzilma (avtomobil yo‘llari, temir yo‘llar, aeroportlar) va raqamli infratuzilmani (keng polosali internet, 4G/LTE tarmog‘i) rivojlantirishga investitsiyalarni oshirish;
- bojxona protseduralarini takomillashtirish va yuklarni kuzatib borishning zamonaviy tizimlarini joriy etish orqali logistika samaradorligini oshirish;
- telekommunikatsiyalar, havo va temir yo‘l transporti tarmoqlarida davlat monopoliyalarining rolini qisqartirish hisobiga xizmatlar bozorini erkinlashtirish;
- shaxsiy ma’lumotlarni lokalizatsiyalash talablarini yumshatish orqali AKT xizmatlarining transchegaraviy savdosiga cheklovlarni olib tashlash;
- xizmatlar sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash maqsadida oliy ta’lim olish imkoniyatini kengaytirish va uning sifatini oshirishga investitsiyalarni oshirish;
- xodimlarning asosiy AKT ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun kasbiy ta’limni, shu jumladan *“Bir million o‘zbek dasturchilari”* kabi dasturlarni qo‘llab-quvvatlash;
- Toshkentdagi IT-Park kabi rivojlanayotgan AKT-xablariga xalqaro mutaxassislarni jalb qilish uchun viza tartiblarini soddalashtirishda davom etish.

Kutilayotgan iqtisodiy foydalar

Xizmat ko‘rsatish sohasini liberallashtirish va modernizatsiya qilish uchun taklif etilgan islohotlarni amalga oshirish O‘zbekistonga sezilarli iqtisodiy foyda keltiradi:

- xususan, xizmatlar savdosini to‘liq liberalizatsiya qilish mamlakatning real YaIMni 17 foizga oshirishi mumkin;
- moliya, aloqa va sug‘urta sohalari mos ravishda 23%, 39% va 45%ga o‘sishi mumkin;
- xizmatlar sohasini liberallashtirish farmatsevtika, elektronika va mashinasozlik kabi tarmoqlarni ham mos ravishda 24%, 30% va 23% ga o‘shirishni ta’minlashi mumkin;
- xizmat ko‘rsatish sohasida raqobatbardoshlikni oshirish malakali va malakasiz xodimlarning ish haqi o‘sishi orqali aholining real daromadlarini 16%ga oshirishi mumkin.

Bundan tashqari, **O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lishi** tashqi bozorlar bilan bog‘liqlikni yaxshilash, mahalliy korxonalar va kompaniyalar raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek xizmatlar sohasini liberallashtirish bo‘yicha islohotlarni amalga oshirish uchun noyob

imkoniyatdir. Ushbu chora-tadbirlar soha faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga va innovatsiyalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ushbu hisobot Jahon banki tomonidan boshqariladigan hamda Avstriya, Norvegiya va AQSh hukumatlari, shuningdek Yevropa komissiyasi tomonidan moliyalashtiriladigan Competitiveness for Jobs and Economic Transformation (C-JET) jamg'armasining moliyaviy ko'magida tayyorlangan.